

**TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Ibadullayev Saburjan Egamberganovich

Abu Rayhon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti.

San'at kafedrası o'qituvchisi. O'zbekiston. Urganch.

saburzani@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritilgan bo'lib, raqamli vositalar, grafik dasturlar, interaktiv doskalar, virtual muzeylar hamda mobil ilovalarning ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Kompyuter texnologiyalar yordamida o'quvchilarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va dars samaradorligini oshirish masalalari amaliy misollar asosida ochib berilgan. Maqolada o'qituvchining innovatsion yondashuvi va pedagogik rolining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение цифровых технологий в занятиях по изобразительному искусству. Проанализированы возможности использования цифровых средств, графических программ, интерактивных досок, виртуальных музеев и мобильных приложений в образовательном процессе. На основе практических примеров показано влияние инновационных технологий на развитие творческой самостоятельности учащихся, формирование эстетического вкуса и повышение эффективности учебных занятий. Особое внимание уделено педагогической роли учителя в организации инновационного образовательного процесса.

Annotation

This article examines the role and importance of digital technologies in visual arts education. The possibilities of using digital tools, graphic software, interactive whiteboards, virtual museums, and mobile applications in the learning process are analyzed. Based on practical examples, the article highlights how innovative technologies contribute to the development of students' creative independence, aesthetic perception, and overall learning effectiveness. Special attention is paid to the teacher's pedagogical role in implementing innovative approaches in visual arts lessons.

Kalit so'zlar

tasviriy san'at, innovatsion texnologiyalar, ijodiy mustaqillik, raqamli ta'lim, grafik dasturlar, virtual muzey, interaktiv dars.

Ключевые слова

изобразительное искусство, инновационные технологии, творческая самостоятельность, цифровое образование, графические программы, виртуальный музей, интерактивное обучение.

Keywords

visual arts, innovative technologies, creative independence, digital education, graphic software, virtual museum, interactive learning.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at mashg'ulotlarida raqamli vositalardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytiradi. An'anaviy qog'oz va bo'yoqlar bilan ishlash usullari saqlanib qolgan holda, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilganda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Raqamli texnologiyalar deganda grafik planshetlar, interaktiv doskalar, kompyuter grafikasi dasturlari, mobil ilovalar hamda multimedia vositalari tushuniladi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga tasviriy san'at asarlarini yaratishda yangi imkoniyatlar ochib beradi. Masalan, grafik planshet yordamida rasm chizish jarayonida o'quvchi ranglar, shakllar va chiziqlar bilan tajriba o'tkazishi mumkin. Xatolarni osonlik bilan tuzatish imkoniyati esa o'quvchida qo'rquv hissini kamaytiradi va erkin ijod qilishga undaydi.

Amaliy misol sifatida, dars jarayonida "Tabiat manzarasi" mavzusini o'rganishda interaktiv doskadan foydalanish mumkin. O'qituvchi mashhur rassomlarning manzara janridagi asarlarini slaydlar orqali namoyish etadi, ranglar uyg'unligi va kompozitsiya haqida tushuntirish beradi. Shundan so'ng o'quvchilar planshet yoki kompyuter dasturida o'z manzarasini mustaqil ravishda yaratadilar. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'z tasavvuriga tayangan holda ishlaydi.

Shu tariqa raqamli texnologiyalar tasviriy san'at mashg'ulotlarini jonlantiradi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiy mustaqillikni shakllantirishdan iborat. Ijodiy mustaqillik bu o'quvchining tayyor namunaga to'liq bog'lanib qolmasdan, o'z g'oyasi, qarashi va tasavvuriga asoslanib ishlash qobiliyatidir. Zamonaviy texnologiyalar aynan shu jihatni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, raqamli rasm chizish dasturlarida o'quvchi o'qituvchi ko'rsatgan namunadan tashqari, o'z dizaynini yaratishga harakat qiladi. U rang tanlash, fonni joylashtirish, asosiy obrazni shakllantirishda mustaqil qaror qabul qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi qat'iy ko'rsatmalar bermaydi, balki yo'naltiruvchi sifatida maslahat beradi. Natijada o'quvchi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi.

Darslarda virtual muzeylardan foydalanish ham juda yaxshi natija beradi. Dars davomida o'quvchilarga mashhur muzeylarning virtual ekskursiyalari namoyish etiladi. O'quvchilar o'zlariga yoqqan asarni tanlab, uning ranglar uyg'unligi yoki mazmuni haqida mustaqil fikr bildiradilar. Keyingi bosqichda esa shu asardan ilhomlanib, o'z ijodiy ishlarini bajaradilar.

Bunday muzeylarga misol sifatida Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston Zamonaviy san'ati muzeyini keltirish mumkin. Ushbu muzey zamonaviy san'at namunalarini keng targ'ib etish bilan birga, ta'lim jarayoni uchun ham muhim manba hisoblanadi. Muzeyning rasmiy veb-sahifasida eng sara san'at asarlaridan tashkil topgan video va slayd ko'rinishidagi materiallar joylashtirilgan bo'lib, ular orqali tashrif buyuruvchilar hamda talabalar san'at asarlari bilan masofadan turib tanishish imkoniyatiga ega.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mazkur muzeyda chet ellik rassomlar ishtirokida turli mavzu va yo'nalishlarda ko'rgazmalar muntazam tashkil etib kelinmoqda. Ushbu ko'rgazmalarda zamonaviy hamda an'anaviy uslubda ijod qiluvchi rassomlarning ishlari namoyish etiladi. Ayniqsa, fotografiya san'ati, kompyuter grafikasi asosida yaratilgan asarlar, shuningdek, klassik va zamonaviy tasviriy san'at yo'nalishlaridagi ijodiy ishlar keng o'rin egallaydi.

Mazkur ko'rgazmalar talaba-yoshlar uchun zamonaviy san'atning turli yo'nalishlarini jonli ravishda ko'rish, tahlil qilish va ilhom olish imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning estetik didini rivojlantirish hamda ijodiy tafakkurini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Zamonaviy san'ati muzeyida tashkil etilayotgan ko'rgazmalar innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishda muhim amaliy misol hisoblanadi.

Mobil ilovalar orqali uyga vazifa berish ham samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchiga ma'lum mavzu asosida raqamli eskiz tayyorlash topshiriladi. Bu vazifa uning darsdan tashqari vaqtda ham ijod bilan shug'ullanishiga imkon yaratadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik mahorati va darsni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning ijodiy faoliyatini yo'naltiruvchi, ularni mustaqil fikrlashga undovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu yondashuv o'quvchilarda ijodiy mustaqillikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi darsni qat'iy qolip asosida emas, balki moslashuvchan shaklda olib borishi lozim. Masalan, "Kompozitsiya" mavzusini o'rganishda o'qituvchi dastlab interaktiv doskada bir nechta namunaviy ishlarni ko'rsatadi, biroq o'quvchilarga aynan shu namunani takrorlashni

majbur qilmaydi. Aksincha, har bir o'quvchiga o'z tasavvuriga tayangan holda mustaqil kompozitsiya yaratish vazifasi topshiriladi.

Shuningdek, baholash jarayonida ham innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi faqat yakuniy natijani emas, balki o'quvchining ijodiy izlanishini, mustaqil qaror qabul qilishini ham hisobga olishi lozim. Masalan, raqamli loyiha taqdimotlari orqali o'quvchi o'z ishini himoya qiladi, qanday g'oya asosida ishlaganini tushuntirib beradi.

Raqamli texnologiyalarni tasviriy san'at mashg'ulotlariga joriy etishda o'qituvchining roli hal qiluvchi hisoblanadi. To'g'ri pedagogik yondashuv orqali o'quvchilarda ijodiy mustaqillik, o'ziga ishonch va san'atga bo'lgan qiziqish yanada mustahkamlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning amaliy jihatlarini mukammal o'rganish va uni o'qitishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish hamda amalga tadbqiq qilish muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дирксен, Дж. Искусство обучать: как сделать любое обучение нескучным и эффективным / пер. с англ. О. Долгова.–М:Манн, Иванов и Фербер,2017.382-b
2. Saburjan Ibadullayev. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining tasviriy san'at darslarida ijodiy mustaqilligini rivojlantirish. Badiiy ta'lim va pedagogika.-2024.№ 4. ISSN 3030-3869. 74-79 b.
3. Egamberganovich I. S. Хива naqqoshlik san'ati ustalarning merosi va hunarlarini yoshlarga o'rgatish orqali ularning ma'naviyatini shakllantirish //Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2024. – T. 2. – №. 14. – С. 84-87.
4. Ibadullayev Saburjan Egamberganovich. Badiiy ijodni shaxsning estetik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy: a collection scientific works of the International scientific online conference (21st October, 2024)–INDIA, New Delhi: "CESS",2024.Part26.25-27b. <https://interoncof.com/index.php/india/issue/view/>
5. Ibadullayeva N.E. Tasviriy san'at ta'limida talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish. International scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education:problems and solutions".Vol.1.No.01.20.november.2023.Qarshi-2023.(2023): <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/206>

6. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, issue 6.collection b june 2023. 42-46 betlar. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>